SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI VA ULARNING TARIXI

Yuldashov Abrorjon Ubaydulloyevich, Guliston davlat pedagogika instituti, Tabiiy fanlar kafedrasi dotsenti, g.f.n.
e-mail: abrorjon_yuldashov@gmail.com
To‘ychiboyev Bahodir Bosimovich, Guliston davlat pedagogika instituti, Tarix va san’atshunoslik kafedrsi dotsenti, t.f.n.
e-mail: bahodirtuychibaev69@gmail.com
Ahmadqulov Said Rauf o‘g‘li, Guliston davlat pedagogika instituti, Tabiiy fanlar kafedrasi stajor-o‘qituvchisi.
e-mail: saidjonahmadqulov5@gmail.com
Fayzullaev Manas Musurmonqul o ‘g ‘li, Guliston davlat pedagogika instituti, Tabiiy fanlar kafedrasi stajor-o‘qituvchisi.
e-mail: saidjonahmadqulov5@gmail.com
Yo‘ldosheva Marjona Vohidovna, Guliston davlat pedagogika instituti, Tabiiy fanlar kafedrasi, Geografiya va IBA ta’lim yo ‘nalishi 2-bosqich talabasi.
e-mail: marjona_vohidovna@gmail.com
Raimjonova Ra’no Akrom qizi, Guliston davlat pedagogika instituti, Tabiiy fanlar kafedrasi, Geografiya va IBA ta’lim yo ‘nalishi 3-bosqich talabasi
e-mail: raimjonovarano3@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda Sirdaryo viloyatining tarixi va madaniyatini o‘rganish, viloyat toponimlari, keng tarqalgan joy nomlari va joy nomlarining shakllanishda o‘ziga xosliklar aks etgan bo‘lib, o‘zbek ijodkor geograf va tilshunoslarining Sirdaryo viloyatida toponimik nomlanishni tarixini o‘rganishlari haqida so‘z boradi. Maqolada Sirdaryo viloyatida joy nomlarini shakllanishida asosiy omillarning ahamiyati keng yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: gidrooykonimlar, orooykonimlar, etnooykonimlar, antropooykonimlar, iqtisodiy-ijtimoiy oykonimlar, fitooykonimlar;

ТОПОНИМИ СИРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ИХ ИСТОРИЯ

Аннотация. В данной статье представлены исследования истории и культуры Сырдарьинской области, региональных топонимов, общих топонимов, особенностей образования топонимов, а также изучение истории топонимического именования в Сырдарьинской области творческими географами и узбекскими лингвистами. слово идет. В статье раскрывается значение основных факторов формирования топонимов в Сырдарьинской области.

Ключевые слова: гидроойконим, ороойконим, этноойконим, антропоойконим, экономико-социальная ойконим, фитоойконим.

TOPONYMS OF SIRDARYA REGION AND THEIR HISTORY

Abstract. This article presents research into the history and culture of the Syrdarya region, regional toponyms, general toponyms, features of the formation of toponyms, as well as a study of the history of toponymic naming in the Syrdarya

region by creative geographers and Uzbek linguists. the word is coming. The article reveals the importance of the main factors in the formation of toponyms in the Syrdarya region.

Keywords: hydrooikonym, orooikonym, ethnooikonym, anthropooikonym, economic and social oikonym, phytooikonym.

Kirish. Sirdaryo viloyati mamlakatimizdagi hududi nisbatan kichik bo‘lgan viloyatlar qatoriga kiradi. Shuningdek, ushbu viloyatda o‘rganilgan qazilma boyliklar nihoyatda kam. Bu borada u Xorazm viloyati bilan birgalikda respublikaning mineral xom ashyo resurslariga boy bo‘lmagan hududlarini tashkil etadi. Viloyat mavjud qazilma boyliklar bo‘yicha mamlakat miqyosida eng oxirgi o‘rinda turadi.

Prezident SH. M. Mirziyoyev Sirdaryoga tashrifi chog‘ida Sirdaryo viloyatini rivojlantirish bo‘yicha vazifalar mutassadilarga bir qator vazifalarni belgilab berdi. Sirdaryo viloyatida 1,7 milliard dollarlik 858 ta investitsiya loyihalari hisobiga 20 ming ish o‘rni yaratish rejalashtirilgan. Sirdaryo viloyatini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish chora-tadbirlari bo‘yicha asosiy e’tibor ish joylarini ko‘paytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash masalalariga qaratilgan. Mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlarni hisobga olib, 100 ming ish o‘rni yaratish zarur.

Sirdaryo viloyati - O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. 1963-yil 16-fevralda tashkil topgan. Maydoni - 4276,2 kv.km, respublikaning 0.96 foiz maydonini tashkil etadi, aholisi - 887,1 ming kishi, fuqarolar yig‘inlari soni - 236 ta, xonadonlar soni - 166716 ta.

Sirdaryo viloyatining hududi bir qancha olimlar va mutaxassislar tomonidan turli xil maqsadlarda ham kompleks, ham soha tadqiqotlari bo‘yicha atroflicha o‘rganilgan va keng yoritilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyatini o‘rganish, viloyat toponimlari.

Biror o‘lka toponimikasini o‘rganishda etnonimlarning o‘rni katta ekanligi haqida deyarli barcha toponimist olimlar, jumladan V. A. Nikonov, S. Qorayev, K. Shoniyozov, S. Gubayeva, N. Oxunov va boshqalar ta’kidlab o‘tganlar.

1984-yildan boshlab viloyat hududida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining Sirdaryo otryadi ishlagan. Unga arxeolog A. A. Gritsina rahbarlik qilgan bo‘lib, bir qator yillar mobaynida cho‘l hududlari, tog‘ oldi vodiylarini o‘rgandi [2, 25-b.], Xovos, Sabat, Zominda arxeologik qazishmalar olib bordi. 1992 yilda A. A. Gritsinaning “Sirdaryo viloyatidagi arxeologik yodgorliklar” nomli monografiyasi chop etildi. Unda mintaqaning antik, o‘rta asrlar davri tarixiga oid manbalar, afsonalar, arxeologik izlanishlar natijasida aniqlangan yodgorliklar haqida ma’lumotlar keltirilgan [3, 25-b.].

“Sirdaryo viloyatidagi arxeologik yodgorliklar” monografiyasida A. A. Gritsina yodgorliklarni topografik jihatdan ikkita – shimoli-sharqiy va janubi-g‘arbiy zonalariga bo‘lib o‘rganadi [2, 25-b.]. Birinchi zonada Mirzacho‘ldagi yodgorliklar kiritilgan bo‘lib, u iqtisodiy jihatdan Toshkent mintaqasiga bog‘langan edi, ma’lum tarixiy bosqichlarda esa Choch tarkibiga kirgan. Ikkinchi zona – Ustrushonaga oid bo‘lib, ular mintaqadagi yirik suv manbalariga bog‘langan Sho‘rbuloqsoy, Xo‘jamushkentsoy, Mug‘olsoy, Tag‘obsoy va Sarmichsoy guruhlariga bo‘lib o‘rganilgan. Har bir guruhda shahriston yoki yirik manzilgoh bo‘lib, u ma’lum bir rustoqning markazi bo‘lgan va uning atrofida mayda manzilgohlar joylashgan edi.

Sirdaryo guruhi (hozirgi Jizzax viloyati, Yangiobod tumani) ga oid 11 ta, Sho‘rbuloqsoy guruhiga oid 16 ta, Xo‘jamushkentsoy guruhiga oid 48 ta, Mu‘g‘olsoy guruhiga oid 9 ta, Tag‘obsoy guruhiga oid 30 ta, Sarmichsoy guruhiga

oid 8 ta yodgorliklar va bir qator qo‘rg‘onlarni arxeologik va topografik jihatdan A. A. Gritsina qisqacha tavsiflab bergan [2, 25-b.]. Umuman olganda, A. A. Gritsinaning kitobida keltirilgan ma’lumotlar Sirdaryo viloyati hududidagi yodgorliklar haqida ma’lumotlarning dastlabki majmui desa bo‘ladi. A. A. Gritsina tomonidan tilga olingan yodgorliklarni o‘rganish, arxeologiya ishini o‘rganib, bo‘lg‘usi arxeologik tadqiqot ishlarida ishtirok etishni, mavjud yodgorliklarni asrab-avaylashni yo‘lga qo‘yishni tashkil etish lozim [3, 25-b.].

Xalqimizning ko‘plab urug‘-qabilalari nomlari Rashididdin, Abulg‘ozi Bahodirxon, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi tarixchilar hamda A. P. Xoroshin, N. A. Aristov, I. N. Logofet, V. V. Bartold, A. Y. Yakubovskiy, S. P. Tolstov, X. Karmisheva, K. SH. Shaniyazov, A. R. Muhamadjanov, B. A. Axmedov, I. Jabborov, H. Hasanov, S. Gubayeva, N. Oxunov kabi olimlarning ilmiy ishlari asosida o‘rganilib, S. Qorayev tomonidan umumiy ro‘yxati tuzib chiqilgan (2006).

Bugungi kunda Sirdaryo viloyati tabiiy geografik holati va toponimiyasiga ko‘ra boshqa viloyatlardan katta farq qiladi - viloyat hududida boshdan-oyoq tekis cho‘l tabiati hukmron, binobarin tog‘u-toshlar yo‘q, suv obyektlari kam, buning oqibatida toponimlar ham ko‘p emas; borlari ham leksik jihatdan rang-barang emas. Relyef tekis bo‘lsa, tabiiy chegaralar bo‘lmasa, toponim ham kam bo‘ladi. Oqibatda Guliston, Zarbdor, Ijodkor, Ilg‘or, Navbahor, Oqoltin, Paxtakor, Paxtaobod, Paxtachi, Pillakor, Sholikor, Yangibo‘ston, Yangiturmush, Yangihayot, kabi hamma yerda “bayroq” qilib olingan nomlar ko‘payib ketgan.

Mirzacho‘lni o‘zlashtirishda butun respublika ishtirok etgan. Buni viloyat hududidagi Andijon, Zomin, Namangan, Nurota, Sangzor, Farg‘ona, Qoraqishlok (Usmat) kabi toponimlardan bilsa ham bo‘ladi.

Viloyatda Boyovut, Jo‘langar, Mirzacho‘l, Sardoba, Sovot, Xovos, Xo‘jamushkent, Sho‘ro‘zak kabi hudud uchun xarakterli nomlar ham yo‘q emas. Viloyat geografik nomlari orasida etnotoponimlar ham uchraydi: Mug‘ol, Nayman, Parchayuz, Puchug‘oy, Sirg’ali, Uvoq kabi o‘zbek urug‘-aymoqlari nomlari bilan atalgan aholi punktlari barobarida Tojikovul, Turkovul kabi boshqa qardosh xalqlar vakillari vatan tutgan qishloq-ovullar ham bor. O‘zbek xalqining ma’lumu-mashhur farzandlaridan Navoiy, Feruz, Hamza, Hamid Olimjon nomlari viloyat xaritasini bezab turadi [3, 25-b.].

Tadqiqot metodologiyasi.

Sirdaryo viloyatida oykonimlar ham keng tarqalgan. Oykonimlar deganda, shahar, qishloq, ovul va boshqa aholi maskanlari nomlari tushuniladi. Aholi maskanlari ijtimoiy-iqtisodiy hamda tarixiy kategoriya bo‘lib, ularning nomlanish jihatlari vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib boradi. Oykonimlarni o‘rganishda ularni guruh-guruhlarga bo‘lib, tasniflash usuli keng tarqalgan. Aholi maskanlarini ikki yirik guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin: Tabiiy yoki tabiiy-geografik va Iqtisodiy-ijtimoiy oykonimlar.

Tabiiy-geografik oykonimlar o‘z navbatida suv bilan bog‘liq, relyefni aks ettiruvchi, o‘simlik va hayvonot dunyosi nomidan olingan oykonimlarga bo‘linsa, iqtisodiy-ijtimoiy oykonimlar o‘z navbatida kishilar ismidan, urug‘-qabilalar nomidan, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalardan olingan oykonimlarga bo‘linadi. Mazkur oykonimlarni chuqurroq tahlil etish maqsadida yana kichik guruhlarga bo‘lish mumkin. Quyida Sirdaryo viloyatidagi oykonimlar misolida ayrim guruhlarga batafsilroq to‘xtalib o‘tamiz.

Sirdaryo viloyatida gidrooykonimlar. Qurg‘oqchil iqlim hukmron bo‘lgan hududlarda. Jumladan Sirdaryo, xususan Mirzacho‘l mintaqasi hududida gidronimlarning (suvlik bilan bog‘liq bo‘lgan geografik obyektlar) gidrooykonimga aylanishi ko‘p kuzatiladi. Gidrooykonimlarni va gidronimlarni nomlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan omillar bir-biridan u qadar ko‘p farq qilmaydi. Gidronimlarning

gidrooykonimga aylanish va kelib chiqish jarayonidagini ba’zi o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.

Gidrooykonimlar tahlilida ularning qanday so‘zlar asosida yaratilganligini aniqlash va nomlanish tamoyillarini belgilashda N. Oxunov (1998) tomonidan ishlab chiqilgan usulga amal qilish mumkin [6,21-23b.]. Bunday tahlilda gap gidronimlar haqida emas balki gidrooykonimlar haqida borayotganligini nazardan qochirmaslik lozim. Chunki hamma gidronimlardan ham aholi maskanlarining nomlari yasalavermaydi. Sirdaryo viloyatida suv bilan bog‘liq holda yaratilgan aholi maskanlari nomlarini quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkin:

Birinchi guruhga suv ob’ektlarining ma’lum bir gidronimga, biror bir etnik guruhga, biror aholi maskaniga yoki ayrim kishilarga tegishli ekanligini bildiradigan gidronimlardan olingan oykonimlar kiradi. Sirdaryo viloyatidagi eng katta suv havzasi bo‘lgan Sirdaryo daryosi, Sho‘ro‘zak yoki Sultonhovuz, Jo‘langar, Qorako‘l, Chashma, Buloqboshi kabi shahar, qishloq va mahalla nomlari mazkur tamoyil asosida yaratilgan.

Ikkinchi guruhga grunt qatlamning ustki tuzilishi, tuproq tarkibi, joy relyefiga ko‘ra nomlangan gidronimlardan olingan oykonimlar kiradi. Bunday qishloq va mahallalarga Yerjar, Jarqishloq, Do‘ngariq kabilar misol bo‘ladi.

Suvning mazasi-ta’mi, hidi, haroratiga va rangiga nisbatan nom olgan gidronimlardan uchinchi guruhga kiruvchi oykonimlar yaratilgan. Bu xil gidrooykonimlarning tarkibida “shirin” “chuchuk”, “totli” “sho‘r”, “achchiq”, “sassiq”, “sovuq” so‘zlari qatnashadi. Achchiqko‘l, Sassiqhovuz, Oqbuloq, Gulbuloq, Baxmalsoy kabi qishloq va mahalla nomlari qayd etilgan. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, gidronimlar tarkibida qo‘llangan oq so‘zi doimo oqib turadigan, tog‘ muzliklardan keladigan, qor suvlari bilan to‘yinadigan, o‘z tabiiy o‘zanida oqadigan, yozda qurimaydigan, rangi oq tusda bo‘lgan, ichishga yaroqli suvga nisbatan ishlatiladi. Yer osti va sizot suvlaridan to‘yinadigan, sekin oqqanligi uchun tiniq qoramtir tusda ko‘rinadigan, tabiiy o‘zanida oqmaydigan suvga nisbatan esa qora so‘zi ishlatiladi.

To‘rtinchi guruhga suv oby’ektining son-sanog‘i, miqdoriga qarab nom olgan gidrooykonimlar kiritiladi. Viloyatda ushbu guruhga kiruvchi Beshbuloq, To‘rtko‘l, Mingbuloq kabi aholi maskanlarining nomi mavjud.

Beshinchi guruhdan ob’ektning joylashgan o‘rniga, hajmi - o‘lchoviga, shakl-tuzilishiga ko‘ra nomlangan gidrooykonimlar joy oladi. Chuqursoy, Buloqboshi, Ulkansoylik, Uzunbuloq kabi joy nomlari shu guruhga mansubdir.

Oltinchi guruhga gidrologik oby’ektning paydo bo‘lgan vaqtiga nisbatan nomlangan gidronimlar asosida yaratilgan oykonimlar kiritiladi. Bunga Sirdaryo viloyatidagi Yangiariq, Yangikanal kabi qishloq va mahalla nomlarini misol qilib keltirish mumkin.

Oxirgi guruhga suvning xarakteri, oqishi, oqim yo‘nalishiga ko‘ra nom olgan gidronimlar hamda boshqa suvlik bilan bog‘liq bo‘lgan gidrooykonimlar kiritiladi. Bu guruhga viloyatdagi Chashma, Sardoba, Oltinko‘l kabi gidronimlardan olingan oykonimlarni ma’nosi alohida tahlil qilinadi.

Sirdaryo viloyatida orooykonimlar. Oykonimlarning ma’lum bir qismi yerning geomorfologik xususiyatlaridan nom olgan bo‘ladi. Yer relyefining tuzilishi, sathi bilan bog‘liq bo‘lgan bunday oykonimlar geomorfologik oykonimlar yoki orooykonimlar deb ataladi. Oronimlarga tog‘, adir, qir va tepaliklar emas, balki relyefning salbiy shakllari - vodiylar, daralar, jarliklar, soyliklar, uyiq-chiqiqlar, shuningdek, tekislik, past tekisliklar va qumliklar ham kiradi. Vaqt o‘tishi bilan obyektning relyefi o‘zgarishi mumkin, biroq o‘sha relyefni ifoda qilgan nom saqlanib qolaveradi. Chunonchi “tepa”, “jar” ma’nosini bildirgan oykonimlarning ayrimlari hozirgi vaqtda o‘sha joy relyef xususiyatini aynan anglatmasligi mumkin.

Relyef shakllaridan aholi maskanlari nomiga eng ko‘p qo‘yiladigan nom tepa hisoblanadi. Qadimda ajdodlarimiz ko‘proq mudofaa maqsadlarini ko‘zlab o‘z yashash manzilgohlarini tepalar yaqinida tashkil etganlar. Mazkur holat dushman xavfini ancha uzoqdan bilish yoki boshqalarni bu haqda ogohlantirish imkonini bergan. Sirdaryo viloyatida tepa so‘zi qatnashgan qishloqlar nomlarining uchrab turishi fikrimizning dalilidir. Ushbu aholi manzilgohlariga qo‘yidagilarni misol qilib keltirish mumkin: Qorovultepa, Saritepa, Qora-qir, Uchtepa, Darvozaqir kabilar. Albatta bu tepalarning egasini, o‘ziga xos xususiyati, son-sanog‘ini bildiruvchi qo‘shimcha so‘zlar ham tahlilga muhtoj bo‘ladi.

Viloyatda jar so‘zi qatnashgan joy nomlari ko‘proq qishloqning yaqin atrofidagi salbiy relyef shakli “jar - o‘yilgan chuqur soylik” borligidan darak beradi. Jar so‘zi ishtirokida Jarboshi, Jarqishloq singari qishloqlar nomlangan.

Viloyatda relyef shaklini yoki toponim davrini bildiruvchi Yuqori Ovul, Pastki Sarmich, Yuqori Sarmich, Katta qishloq, Yangi qishloq so‘zlari vositasida yoki chuqur so‘zi bilan Chuqursoy kabi oykonimlar yaratilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari oykonimlarning vaqtini ko‘rsatuvchi joy nomlari: Eski ovul, Yangi ovul uchraydi. Geomorfologik oykonimlarga relyef shaklidan tashqari joyning landshaft tuzilishini bildiruvchi joy nomlari ham kiradi. Bunday oykonimlar tarkibida dasht, cho‘l, bo‘z so‘zlari keng tarqalganligi bilan ajralib turadi.

Sirdaryo viloyatida fitooykonimlar. Toponimlarning nisbatan katta bir guruhini o‘simlik nomlari asosida yaratilgan atamalar tashkil etadi. O‘simlik va daraxt nomlari bilan atalgan aholi maskanlari nomi - fitooykonimlar deb ataladi. Ular ma’lum hududda tarqalgan o‘simliklar dunyosi haqida batafsil ma’lumot beradi. Bu turdagi joy nomlarining vujudga kelishi yuqorida ta’kidlanganidek, nisbiy negativlik deb atalgan geografik qonuniyat asosida yuz beradi. Bu qonuniyatga ko‘ra, biror joyga nom berishda shu hudud uchun nisbatan kam bo‘lgan, hammani diqqat e’tiborini tortadigan tabiiy va ijtimoiy obyektlar nomi tanlanadi. Bundan tashqari, o‘simliklar nomi kundalik hayotda o‘ziga xos mo‘ljal bo‘lib ham xizmat qilgan. Shu tarzda geografik nomlar tizimida, jumladan Sirdaryo viloyati hududida ham fitooykonimlar paydo bo‘lgan. Sirdaryo viloyati hududida tarqalgan fitooykonimlar tarkibida madaniy va yovvoyi o‘simliklardan: Bodomzor, Lolazor, Yulg‘un, Mevazor, Bog‘iston, Oqchangal, Bog‘aro, Tomirli kabi o‘simliklar nomidan olingan joy nomlari takrorlanib keladi. Madaniy o‘simliklarning jamiyatda tutgan o‘rniga mos ravishda viloyatimiz qishloq va mahallalari orasida ular nomi bilan ataladigan joy nomlari ko‘pchilikni tashkil etadi, jumladan: Anorzor, Jiydali, Olmazor, Olmali, Paxtakor, Paxtaobod, Terakzor, Mingterak, Tolzor, To‘ptol, Tolqator, Yakkatol, Tutzor, Tutqator, Uchtut, Yakkatut, O‘rikzor, O‘rikli kabi.

Fitooykonimlar tarkibidagi qo‘shimchalarga qarab ma’lum bir joyda o‘simlik yoki daraxtlarning tarqalish miqdorini bilish mumkin. Ma’lum hududda o‘simliklarning ko‘p ekanligini bildiruvchi oykonimlar tarkibida ming, tup, qator, gala singari sonlar va miqdorni bildiruvchi so‘zlar yoki - li, -lik, -zor, -iston qo‘shimchalari mavjud bo‘ladi: Mingchinor, Tut qator, Olmali, Uzumzor, O‘rikzor singari. O‘simlikning kamligi yoki sanoqli ekanligi ma’nosini bildiruvchi oykonimlar tarkibiga “yakka”, “ikki”, “qo‘sh”, “uch”, “to‘rt”, “chor” so‘zlari ishtirok etadi. Masalan, Yakkatol, Uchtut, Qo‘shchinor kabi.

S.Qorayev (2006) har doim ham o‘simliklar nomidan olingan aholi maskanlari nomini fitooykonimlar guruhiga kiritish u qadar to‘g‘ri emasligini ta’kidlaydi [6,21-23b.]. Sababi madaniy o‘simliklar, turli ekinlar va daraxt-butalar dehqonchilik hamda bog‘dorchilik manbai bo‘lib, iqtisodiy geografiyaning o‘rganish obyekti hisoblanadi. Shuning uchun bunday nomlarni iqtisodiy oykonimlar guruhiga kiritish ham mumkin. Bunday oykonimlar qatoriga respublikamizdagi Anorzor, Bedazor, Bedapoya, Bodomzor, Jiydazor, Lolazor, Mingo‘rik, Mingchinor, Olmazor,

Oqterak, Paxtakor, Paxtachi, Terakzor, Tutzor, Mevazor kabi nomlarni kiritish mumkinligi ta'kidlanadi.

Sirdaryo viloyatida etnooykonimlar. Jamiyatning turli rivojlanish bosqichlarida vujudga kelgan urug‘, qabila, elat, xalq, millat kabi etnik birliklar etnoslar deb atalgan. Bu fikrni ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan, etnologiya fanidagi yagona fikr deb bo‘lmaydi. Ammo biz etnoslarning faqatgina toponimikaga aloqador jihatlariga to‘xtalmoqchimiz. Biroq hudud toponimiyasini o‘rganishda masalaning boshqa jihatlarini ham esdan chiqarmaslik zarur, sababi butun dunyo etnoslari uchun xos bo‘lgan jihatlar bizninig xalqimizga ham tegishlidir.

Birinchidan, etnoslarga qo‘yilgan nomlar shu qadar o‘zgarib ketishi mumkin ekanki, bu nomga qarab mavjud etnosning tarqalgan hududi, etnik tarixi haqida har doim ham xulosa chiqarish to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, aholi maskanlariga etnoslar nomini qo‘yishda ham toponimikadagi nisbiy negativlik qonuniga amal qilinadi. Ya’ni, biror millat yoki xalq yaxlit yashaydigan hududning bir qismiga emas balki, bu hududning chekka qismida ikki xalq vakillari aralashib yashaydigan joylardagina etnoslarning nomi xos xususiyat, ajralib turuvchi belgi sifatida joylarga qo‘yiladi. Shuning uchun bu toponimlar asosida o‘rganilayotgan etnosning geografiyasiga har doim to‘g‘ri baho berib bo‘lmaydi.

Tarixiy manbalarda 92 ta o‘zbek urug‘i borligi yoziladi. Bundan tashqari, bu urug‘larning har biri yana mayda guruhlarga bo‘linib ketishiga to‘xtalib, K.Shoniyozov birgina qo‘ng‘irot urug‘ining 200 dan ortiq kichik shox – to‘plarga ajralib ketishini yozadi. Sirdaryo viloyati hududida keng tarqalgan etnik guruhlar nomi ham toponim sifatida joy nomlariga ko‘p qo‘yilgan. Bu haqidagi batafsil ma’lumotlar N.Oxunov [6, 21-23b.] hamda S.Qorayev [7, 26-28 b.] asarlarida keltirilgan. Biz quyida ushbu manbalardan foydalangan holda viloyatdagi qishloq va mahallalar nomlari tarkibida ko‘p takrorlanadigan etnik birliklar nomlariga to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Sirdaryo viloyatida Parchayuz, Beshyuz, Choljuvut, Juvonsiyroq, Qorasiyroq, Risto‘pi, So‘pi, Uyas, Solin, Sirg‘ali, Nayman, Turk, Qo‘qoni-qarapchi, Uvoq, Uyuvli/O‘yuvli, Yettiurug‘, Boyovut, Barlos, Bolg‘ali kabi urug‘, qabila va ularning ayrim to‘plari nomlari bilan bog‘liq toponimlar uchraydi.

N.Oxunovning ta’kidlashicha (1989) qipchoq qabilasi ko‘pgina turkiy xalqlar: o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq, qirg‘izlarning etnik tarkibiga kirib, ularning millat bo‘lib shakllanishida qatnashgan [5, 21-23b.].

Mirzaobod tumanidagi Choljuvut, Juvonsiyroq, Qorasiyroq, So‘pi, Uyas, Solin, Sirg‘ali, Nayman, Xovos tumanidagi Beshyuz, Boyovut tumanidagi Boyovut, Puchug‘oy, Guliston tumanidagi Nayman, Sardoba tumanidagi Parchayuz qishloqlarining nomi shunday atamalar jumlasiga kiradi.

Sirdaryo viloyati toponimik xaritasiga kiritilgan qishloq va mahallalarga qo‘yilgan nomlar orasida eng keng tarqalgani nayman urug‘ining nomidir. Hozirda Nayman nomli qishloqlar Sirdaryo viloyati Mirzaobod, Oqoltin tumanlarida uchraydi.

Yuz urug‘lari nomlaridan olingan qishloqlar Boyovut, Mirzaobod, Guliston, Sardoba tumanlarining toponimik xaritalarida qayd etilgan. Jaloyir urug‘i vakillari nomi oykonim sifatida Xovos, Boyovut, Mirzoobod tumanlarida saqlanib qolgan.

Sirdaryo viloyatida tarqalgan etnooyokonimlar orasida boshqa millat vakillari tarqalganligini, yashaganligini bildiruvchi joy nomlari ham mavjud. Ularga tatar, tojik, qirg‘iz, qoraqalpoq, koreys, rus, yahudiy singari millatlar bilan bog‘liq joy nomlari bo‘lib, ularga Turkman ovul, Tojik ovul, Turk ovul, Xristianlar, Provaslav, Koreyslar kabi toponimlar misol bo‘ladi. Mazkur nomlarning anchagina qismi Sirdaryo viloyati toponimlari orasida takrorlanadi. Sirdaryo viloyati oykonimlari orasida etnonimlar soni boshqa viloyatlarga nisbatan kamchilikni tashkil qiladi.

Sirdaryo viloyatida antropooykonimlar. Kishilarning ismlari, laqablari, taxalluslari va familiyalaridan yasalgan joy nomlari antropooykonimlar deb yuritiladi. Keyingi yillarda viloyatda ko‘cha, mahalla va qishloqlarga nom berishda kishilarning ismlarini qo‘yish yoki komissiyaga taqdim etish hollari ko‘p uchrab turadi. Shuni hisobga olib mazkur mavzuda ikkita fikrni aytishni lozim topdik. Birinchidan, yuqorida ta’kidlanganidek Islom dini odatlariga ko‘ra joylarga nom berishda kishilarning ismlaridan foydalanish u qadar quvvatlanmagan. Sharqda yashagan ulug‘ allomalarning ismlarini dunyo xaritasida uchramasligi ushbu fikrni tasdiqlaydi. Keyinchalik so‘lim go‘shalarga aziz-avliyolar, Islom dini namoyondalarini ismlari qo‘yila boshladi. Ikkinchidan, respublikaning amaldagi qonunlari bo‘yicha ob’ektlarga kishilarning ismini berishga alohida hollarda ruxsat beriladi. Mahallalar, ko‘chalar, maydonlar, xiyobonlar, bog‘lar va aholi punktlarining boshqa tarkibiy qismlariga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga, fizik-jug‘rofiy, geologik, tabiati muhofaza etiladigan va boshqa obyektlarga davlat, jamoat arboblarining, siyosiy arboblarning, Vatan himoyachilari, mehnat qahramonlari, fan, madaniyat arboblari va boshqa xizmat ko‘rsatgan odamlarning nomini berish faqat ularning vafotidan so‘ng amalga oshirilishi mumkin ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Antropooykonimlarning vujudga kelishi jamiyatda tabaqalanishning paydo bo‘lishi davridan boshlangan. Antropotoponimlarni paydo bo‘lish xususiyatlariga ko‘ra tasniflash toponimikada S. Qorayev (2006), N. Oxunov 1983) kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan [6-7, 21-23 b.]. N.Oxunov (1983; 2005) Respublika miqyosida to‘plangan faktik materiallar asosida kishi atoqli otlarining joy nomiga aylanishining bir necha usullarini ajratib ko‘rsatadi [8,21-23 b.].

1. Kishi ismi hech qanday qo‘shimchasiz joy nomiga aylanadigan holat: Iskandar, Haydar, Sobirjon, Bekmurod, Bakir, Islom, Sulaymon va boshqalar.

2. Kishi ismi va unga qo‘shilib qo‘llanilgan titul nomidan iborat oykonimlar: Alimxon, Said Umarxon, Shamsiddinxon, Abdullaxon hoji kabi.

3. Kishi ismi bilan geografik terminning birikuvi orqali yasalgan oykonimlar. Bu gruppaga mansub bo‘lgan antropooykonimlar shaxs nomlariga asosan qishloq, mahalla, qo‘rg‘on, qo‘rg‘oncha, guzar, ovul, tepa, jar, kent, dasht, cho‘l, orol, ravot, maydon singari terminlarni qo‘shish orqali ifoda qilingan: Usmontepa kabi.

4. Kishi ismiga “obod” affiks oldini qo‘shish orqali yasalgan oykonimlarga Usmonobod, Nurmatobod, Rahmonobod, Soyibobod kabi qishloq va mahalla nomlari misol bo‘ladi.

5. Kishi ismiga “bobo”, “ota”, “aziz” so‘zlaridan biriniig qo‘shilishi asosida vujudga kelgan oykonimlar: Sher bobo, Yusuf bobo maqbarasi, Oqmozor bobo, Hojiota, Parpi ota, Zarif ota qabristoni, Tastanbek baba, Mullayor ota, Safarota, Qo‘chqorchiota, Abduhakim ota, Aliqul bobo, Shomurodobod, Changirbobo va boshqalar. Bu nomdagi antropooykonimlarning o‘sha joy tabiatini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish sohasidagi diniy – ilohiy vazifasi haqida alohida to‘xtalib o‘tish lozim. Bunday toponimlarning ekotoponimik funksiyasini puxta o‘rganish va tahlil etish zarur.

6. Sirdaryo viloyatining katta qismi keyingi davrlarda, xususan XX asrda o‘zlashtirilganligi sababli bu yerda yangi paydo bo‘lgan aholi manzilgohlarini nomlashda tarixiy shaxslar, din va adabiyot nomoyondalari, davlat arboblari nomlaridan toponim sifatida foydalanish ko‘p kuzatiladi.

Tahlil va natijalar. Sirdaryo viloyatida iqtisodiy-ijtimoiy turmushni aks ettiruvchi oykonimlar. Aholi maskanlarini nomlashda xalqning iqtisodiy turmush tarzi – kasbi, xo‘jalik faoliyati, orzu umidlari muhim omildir.

Qadimda hunarmandchilik bilan bog‘liq bo‘lgan joy nomlari ko‘proq mahallalarga berilgan bo‘lib, viloyat qishloq va shaharlarida Chilangarlar, Chorvador, Tadbirkor, Baliqchi, Binokor kabi joy nomlari qayd etiladi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan bog‘liq bo‘lgan Dehqonobod, Mehnatobod, Paxtakor, Sholikor, Pillakor, G‘allakor, Bodomzor, Mirishkor, Behizor kabi qishloqlar mavjud. O‘zbekistonda kishilarning iqtisodiy turmushida savdoning ahamiyati yuqori bo‘lgan. Savdo mazkur hududning gullab yashnashiga ta’sir o‘tkazgan. Shuning uchun “bozor” iborasi toponimlar tarkibida ko‘p tarqalgan. Viloyatidagi toponimlar orasida Bozor, Ustabozor, Yangibozor nomlari savdoga nisbat berib qo‘yilgan. Aholi maskanlari orasida kishilar mulkiy darajasi, jamiyatdagi mavqeyi, tabaqasini bildiruvchi so‘zlar bilan yasalgan joy nomlari anchaginani tashkil etadi.

Xulosa va takliflar. Xalqimiz tarixi bilan bog‘liq joy nomlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega ilmiy tadqiqot hisoblanadi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq milliy qadriyat, urf-odat va an’analarni tiklash masalasida muhim ishlar qilinib, milliy tuyg‘ularga xos bo‘lgan ma’naviyatimiz tiklandi. Tarixiy atamalarni o‘rganish, qayta tiklash bo‘yicha davlat miqyosida katta ijobiy ishlar bajarildi. Atamalarning ilmiy-nazariy asoslari yaratilib, joy nomlarini qo‘yish, o‘zgartirish, bekor qilish bilan bog‘liq tarixiy yo‘nalishlar belgilanib, shaxslar nomini qo‘yish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Sirdaryo viloyatiga xos tarixiy-etnologik manbalar ma’lum ma’noda o‘rganilib, mavjud atamalar umumlashtirilib, ilmiy, nazariy jihatdan asoslab berildi. Sirdaryo viloyati ko‘p urug‘li, ko‘p tilli xalqlar yashaydigan hudud hisoblanib, aholisi tiliga, urf-odatlariga mos kelmaydigan atamalar ham mavjud. Eng muhimi tarixiy atamalarni xalqimiz ruhiyatiga mos tahlil etish orqali shaxslar nomini abadiylashtirish, Vatan ozodligi, mustaqilligi, xalqaro tinchlikni mustahkamlash yo‘lida mardlarcha halok bo‘lgan shaxslar nomlarini joy nomlariga qo‘yish muhim tarixiy ahamiyatga ega voqea ekanligi izohlab berildi. Maqolada fan va madaniyatimiz, iqtisodiyotimiz rivojiga munosib hissa qo‘shgan tarixiy shaxslar nomini abadiylashtirish bo‘yicha ham muhim ishlar qilinib, tarixiy atamashunoslik fani rivojiga munosib hissa qo‘shish bosh maqsad qilib olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov B. “Tarixdan qisqacha izohli lug‘at”, – Toshkent, 1977. – B. 107.
2. Gritsina A. A. “Qadimiy Zomin”. – Toshkent, 2018. – B. 131.
3. Грицина А. А. Археология, история и архитектура средневековой Уструшани. – Самарканд, 2013. – Б . 56-64
4. Qorayev S. O‘zbekiston viloyatlari toponimlari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. – B. 240
5. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006. – B. 147
6. To‘ychiboyev B. B. Sirdaryo viloyati toponimlari. Guliston, 2024. – B. 80-86.
7. Oxunov N. Til va joy nomlari, – Toshkent, 1988. – B. 9-14
8. Oxunov N. Toponimlarining lug‘aviy-ma’noviy tasnifi. – Toshkent, 2023. – B. 21-23.